





2020- yil yanvar-iyul oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Namangan viloyatida jami **2285,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **108,6 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2176** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **413** taga oshdi



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (*birlikda*)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.08.2020
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
Namangan viloyat	1763	2176	100,0
Namangan sh.	624	714	32,9
tumanlar:			
Mingbuloq	57	80	3,7
Kosonsoy	183	266	12,2
Namangan	115	122	5,6
Norin	67	107	4,9
Pop	63	79	3,6
To'raqo'rg'on	74	88	4,0
Uychi	170	198	9,1
Uchqo'rg'on	78	129	5,9
Chortoq	126	146	6,7
Chust	129	154	7,1
Yangiqo'rg'on	77	93	4,3




Ma'lumot uchun: viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (32,9 %), Kosonsoy tumani (12,2 %) va Uychi (9,1 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Pop tumani (3,6 %), Mingbuloq tumani (3,7 %), To'raqo'rg'on tumani (4,0 %), Yangiqo'rg'on (4,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **282,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **3,3** martaga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **8,3 %** punktga ko'payib, **12,3 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namangan shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **82,7 %** i), Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,3 %** i), va Uychi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,3 %** i) va Chortoq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,7 %** i) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **60,9 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **7,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **95,3 %** ni tashkil etgan holda **1 391,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-iyul
- 2019- yil yanvar-iyul





Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26,8 %** ni tashkil etdi yoki **612,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **109,3 %** ni tashkil etdi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **106,6** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **114,6 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2 178,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **146,4 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **4,7 %** va **95,3 %** ni tashkil etdi

IQTSODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2020-yil yanvar-iyul oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Namangan viloyat	2 285,5	106,6	100,0	2 178,9	100,0
Namangan sh.	679,4	8,2	7,6	671,2	30,7
tumanlar:					
Mingbuloq	92,3	5,4	5,1	86,9	4,0
Kosonsoy	246,5	9,5	8,9	237	10,9
Namangan	187,1	8,2	7,7	178,9	8,2
Norin	87,0	5,4	5,1	81,6	3,7
Pop	150,1	33,5	31,3	116,6	5,4
To'raqo'rg'on	131,8	6,3	6	125,5	5,8
Uychi	243,3	10,5	9,8	232,8	10,7
Uchqo'rg'on	96,1	4,7	4,4	91,4	4,2
Chortoq	123,9	4,1	3,8	119,8	5,5
Chust	135,0	5,3	5	129,7	6,0
Yangiqo'rg'on	113,0	5,5	5,3	107,5	4,9




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
Namangan viloyat	2 285,5	108,6	100
Namangan sh.	679,4	119,1	29,7
tumanlar:			
Mingbuloq	92,3	119,0	4,0
Kosonsoy	246,5	124,6	10,8
Namangan	187,1	87,6	8,2
Norin	87,0	107,9	3,8
Pop	150,1	100,5	6,7
To'raqo'rg'on	131,8	102,7	5,8
Uychi	243,3	100,7	10,6
Uchqo'rg'on	96,1	106,7	4,2
Chortoq	123,9	101,1	5,4
Chust	135,0	103,3	5,9
Yangiqo'rg'on	113,0	111,5	4,9

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

2020- yil yanvar-iyul oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (679,4 mlrd. so‘m) hamda Kosonsoy (246,5 mlrd. so‘m) va Uychi (243,3 mlrd. so‘m), Namangan (187,1) Pop (150,1 mlrd. so‘m), Chust (135,0 mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (131,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (69) 227-84-85